

## PSIXOLOGIYA FANI TARAQQIYOTIDA ABU ALI IBN SINO FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI

**Egamqulov Dostonjon, Xushmurodov Xasan va Eshpo'latov Suhrob**  
SamDTU Tibbiy pedagogika fakulteti 602-guruh talabalari

**Muratova Sh. M**

Ilmiy rahbar:

### ANNOTATSIYA

Abu Ali ibn Sinoning so‘zlariga ko‘ra, inson ongining individual hayotida rivojlanishining turli bosqichlari deb tushunish kerak. Darhaqiqat, “Akl al-gayulani” da har bir shaxsning o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, bolalik davrida egallay olishi mumkin bo‘lgan aqli. Bu yosh bilan bog‘liq holda ortib borishi mumkin. Keyingisi “Akl bi al-fil” da insonning biror bir kasbga yo‘naltirilgan qiziqishi, bizni tilda aytilganda qobiliyati tushuniladi. “Akl al-mustafad” esa qiziqishlarini e’tiborga olgan holda. shaxsning o‘z maqsadiga erishish yo‘lida egallagan bilimi aytilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Abu Ali ibn Sino, o‘rta asr dunyosi, idealist, tendentsiya, “Akl bi al-fil”, “Ruh she’ri”, “Ruh haqidagi risola”, “Akl al-gayulani”, “Akl bi al-malaka”, “Akl al-qudsi”

Abu Ali ibn Sino - o‘rta asr ilmiy dunyosida yirik faylasuf sifatida mashhur bo‘lgan. U falsafiy savollarni oqilona hal qilishga va tajribaga katta ahamiyat beradigan, haqiqat va faktlar orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kamyob shaxs sifatida e’tirof etiladi. Abu Ali ibni Sino qarashlarida materialistik tendentsiyalar bilan ilohiy-idealistik pozitsiyalar bilan birlashtirilgan. U dunyoning abadiyligini tan olgan, tabiat hodisalarini o‘zaro bog‘liq deb hisobladi, tabiatda sababiy qonuniyat haqidagi ta’limotni ishlab chiqib, dunyoda Xudoning aralashuvi bilan buzilmaydigan tabiiy qonun hukmronlik qiladi deb ishongan.

Abu Ali ibn Sino o‘z fikrini diniy ilmlardan uzib tashlab, g‘oyalar olamining mavjudligi, lekin shu o‘rinda din va Xudoning borligini tan olgan. Uning fikricha bizning his -tuyg‘ularimizning kelib chiqishi sezgilarimizga har xil obektiv voqeа va hodisalarining elementlari (rang, shakl va tovushlar) ta’sir qilib, inson ongida aks ettirish nazariyasini ishlab chiqdi. Bu bilan Abu Ali ibn Sino psixologiya sohasida muhim iz qoldirdi. U bu fanga bir qancha maxsus risolalar bag‘ishlagan. Uning “Ruh haqidagi risola” (“Risolat fi al-nafs”) va “Ruh she’ri” (“Risolat sainat al-javxar an-

nafis") risolasida odam va hayvonlarning ko‘plab ruhiy hodisalarini tahlil qilgan. Oldingi faylasuflarning, xususan al-Kindi va al-Forobiyning psixologik tushunchalari va nazariyalarini chuqur va har tomonlama o‘rganib chiqib, o‘z tajribalari, kuzatuvlari va tadqiqotlari bilan ularning ta’limotini kengaytirgan va takomillashtirgan.

Abu Ali ibn Sinoning bu nazariyasiga ko‘ra, tanalar materiya va shakldan tashkil topgan, shakl esa ruhdır. U insonlarning xaraketri va ruhining kamolotiga qarab guruhlarga ajratadi. Aynan uning bu ajratishi Gippokrat va Sechenovning inson xarakteriga binoan ajratgan tempramentni eslatadi. U inson ruhini moddiy bo‘lmagan modda deb tushunadi. Demak, u moddiy tana bilan bir qatorda, moddiy bo‘lmagan ruhni ham tan oladi. Ammo ruhiy hodisalarini tushuntirishda u materializmga moyillikni ko‘rsatadi: u ruhiy hodisalarini tana bilan bog‘laydi va ularni tananing anatomik va fiziologik sharoitlari bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Abu Ali ibn Sinoning "Ruh haqidagi risola" sida keltirib o‘tgan ushbu so‘ziga ko‘ra, o‘simlik ruhi o‘simlik hayotini boshqaradi (oziqlanishi, o‘sishi, ko‘payishi), hayvon ruhi odamlarning va hayvonlarning ruhiy hayotini boshqaradi (qobiliyat, sezuvchanlik, o‘zboshimchalik bilan harakatlanish va ma’lum bir ob’ektni bilish), inson ruhi faqat insonga xos bo‘lib, uning aqliy hayotini boshqaradi (oqilona faoliyat, olamlarni bilish va mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish).

Abu Ali ibn Sino o‘z o‘tmishdoshlari bilan taqqoslanganda, aqlning yanada aniq va takomillashtirilgan nazariyasini va uning turlarini tasnifini bergan. Uning fikricha, inson ruhida ikkita kuch alohida ahamiyatga ega, ya’ni - kognitiv va faol. Kognitiv kuch – bu shaxs bilimini hosil qilish va o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan, faol kuch - faol aql. Shaxsning kognitiv ongi rivojlanishning ma’lum bosqichlarini va bosqichlaridan o‘tadi.

Abu Ali ibni Sino insonlarda aql rivojlanishining besh bosqichini ajratadi:

Birinchi bosqich: birlamchi yoki mutlaq aql, ya’ni kuchga ko‘ra aql (akl al-gayulani);

Ikkinci bosqich: haqiqiy aql (akl bi al-fil);

Uchinchi bosqich: ishlatilgan ong, ya’ni, olingan aql (akl al-mustafad);

To‘rtinchi bosqich: tajribaga asoslangan aql (akl bi al-malaka);

Beshinchi bosqich: sof ruhiy aql (akl al-qudsi);

Bu sanab o‘tilgan aqllarni, Abu Ali ibn Sinoning so‘zlariga ko‘ra, inson ongining individual hayotida rivojlanishining turli bosqichlari deb tushunish kerak. Darhaqiqat, “Akl al-gayulani” da har bir shaxsning o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, bolalik davrida egallay olishi mumkin bo‘lgan aqli. Bu yosh bilan bog‘liq holda ortib borishi mumkin. Keyingisi “Akl bi al-fil” da insonning biror bir kasbga yo‘naltirilgan qiziqishi, bizni tilda aytilganda qobiliyati tushuniladi. “Akl al-mustafad” esa qiziqishlarini e’tiborga

olgan holda. shaxsnинг о‘з мақсадига ерішіш ю‘лда егальланған билим аytіlmoqda. Keyingi “Akl bi al-malaka” да, о‘зи танланған касби доiraсида faoliyati davомida anglagan, tushungan bilimi haqida so‘z bormoqda. So‘ngisi “Akl al-qudsi” hayotida ro‘y bergen qiyin vaziyatlar, masalan, tanlov vaqtida ichki kechinmalari va ruhi bilan qabul qilgan qarorini yuzaga chiqaradigan ong shaklidir.

Tana, ruh, ong, aql, sezgi, xaraketer, tarbiya va shu kabi tushunchalar va ularning to‘liq ta’rifi va tasniflari bilan Abu Ali ibn Sino Gippokratdan keyingi ikkichi o‘rindagi psixologiyaning asoschilaridan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shunday qilib, buyuk bobokalonimizning yuqoridagi ishlari aynan, psixologiya fanining falsafadan ajralishiga turtki bo‘lgan bo‘lsa ne ajab.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Pedagogika va psixologiya Г.Я. Гулямова, С.М. Чиниева. 2019 y. 216-bet
2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T, 1997.
4. I.Karimov. "Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman".T,2000
5. Sh.Mirziyoev."O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqi".T,2018.
6. Pedagogika.(qo‘llanma.A.Munavvarov tahriri ostida)T,1996. •Pedagogika (qo‘llanma. Prof A.Ilina tahriri ostida ) M,1984.
- 7.ZununovA. Badiiy asar tahlili :Adabiyot yqituvchilari uchun qo‘llanma.- Toshkent. 1989y.
- 8.R.Ishmuxammedov,M.Mirsolieva O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. Metodik qo‘llanma.2014y.
9. Karimov I.A. "YUksak ma’naviyat-engilmas kuch" Ma’naviyat nashriyoti. Toshkent 2008yil.